

Nazarova Muharram Yunus qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
Email: nazarovamuharram96@gmail.com



TURLI MADANIYAT VA DAVRLARDA AYOLLARNING IJTIMOIIY O'RNI VA ULARGA BO'LGAN MUNOSABATLAR TARIXI

Annotatsiya. *Ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ba'zi jamiyatlardagi ayollar uchun haqiqiy tenglik hali-hamon orzulgicha qolib kelmoqda. Ushbu maqolada ayollarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarning tarixiy ildizlari haqida haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация. *Несмотря на определенные успехи в достижении равенства женщин с мужчинами, истинное равенство для женщин в некоторых обществах все еще остается недостижимой мечтой. В данной статье рассматриваются исторические корни социальных отношений к женщинам.*

Annotation. *Despite certain achievements in attaining equality between women and men, true equality for women in some societies still remains an aspiration. This article examines the historical roots of social attitudes towards women.*

Tayanch so'zlar: *ayollarga nisbatan munosabatlar, qullar, Pifagor, yunon madaniyati, Platon, mehnat munosabatlari, Manu qonlari.*

Ключевые слова: *отношение к женщинам, рабы, Пифагор, греческая культура, Платон, трудовые отношения, законы Ману.*

Keywords: *attitudes towards women, slaves, Pythagoras, Greek culture, Plato, labor relations, Manu's laws. Attitudes towards women, slaves, Pythagoras, Greek culture, Plato, labor relations, Manu's laws.*

Har qanday shaklda amalga oshiriladigan kamsitilish ayolni erkaklar ega bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib boradi. Ayolning insoniy qadr-qimmatini poymol qiladigan zo'ravonlik xotin-qizlar huquqlarini kamsitishning eng xavfli shakli hisoblanadi. BMTning ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda millionlab ayollar jismoniy zo'ravonlik xavfi ostida yashaydilar.

Kirish. Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o'z huquqlarining kamsitilishiga duch keladilar. Oilada qiz bolaning o'qishi, o'quv yurti yoki oliy o'quv muassasasini bitirishi hamda ijtimoiy hayotda qatnashishini taqiqlash va cheklash, ayolning homiladorligi yoki ko'p bolaliligi sababli ishga qabul qilmaslik, ayol bilan erkakning kasbiy qobiliyat va bilimdonlik darajalari baravar bo'lgani holda ayolni emas, erkakni yuqori xizmat pog'onasiga ko'tarish, ayolni davlatni boshqarish ishlariga yaqinlashtirmaslik kabi hollarning barchasida ayol kishining insoniy huquqlariga putur yetkazilgan bo'ladi.

Asosiy qism. Har qanday shaklda amalga oshiriladigan kamsitilish ayolni erkaklar ega bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib boradi. Ayolning insoniy qadr-qimmatini poymol qiladigan zo'ravonlik xotin-qizlar huquqlarini kamsitishning eng xavfli shakli hisoblanadi. BMTning ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda millionlab ayollar jismoniy zo'ravonlik xavfi ostida yashaydilar.

Xotin-qizlar shafqatsiz zo'ravonlik natijasida nafaqat mayib bo'ladilar, hattoki hayotdan ko'z yumadilar. Xotin-qizlarga qarshi zo'ravonlik "haddan tashqari chetga og'ish" sifatida baholanadiki, u xotin-qizlarga jismoniy, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Holbuki, inson huquqlari, erkakmi yoki ayolmi, o'g'il bolami yoki qiz bola ekanligidan qat'i nazar, har bir shaxs ega bo'ladigan huquqlardir. Davlatlar o'zlarining demokratik tusda ekanligi haqidagi nufuzni saqlab qolishni xohlar ekan, ularga inson huquqlarini e'tirof etish va rioya qilish borasida qo'yiladigan zamonaviy talablarni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bu ularning haqiqiylikini sinaydigan mezondir.

Xotin-qizlarga nisbatan namoyon qilinadigan kamsitish va zo'ravonlik muammosi hozirgi vaqtda ham jamiyatning diqqat-e'tiborini jalb qilib turgan eng keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Ayollar ibtidoiy davr boshidan hukmron mavqega ega bo'lgan, ya'ni oila boshlig'i ona bo'lgan. Sinflar paydo bo'lishi davrida ishlab chiqarishning yuksalishi va xususiy mulk munosabatlari yetilishi jinslar holatida o'zgarishlarga olib keldi. Mehnatning jinslar o'rtasida taqsimlanishining yangi tartibi buning dastlabki asosi bo'ldi. Qo'lda bajariladigan dehqonchilik ishlariga qarama-qarshi o'laroq yerlarni haydash, molboqarlik, asosan, erkaklar faoliyatining sohasi bo'lib qoldi. Ayollarga uy hayvonlarining oldiga yaqinlashish ham taqiqlangan. Xo'jalik faoliyatining avvalgi yo'nalishlari saqlanib qolgan joylarda ham ularning yangicha rivojlanishi erkak mehnatining ahamiyatini so'zsiz oshirgan. Bularning hammasi uchta muhim oqibatni keltirib chiqargan:

✓ Xotin-qizlarni xo'jalik faoliyatining asosiy turlaridan, jamoat ishlab chiqarishida ishtirok etishdan chetlashtirish.

✓ Deyarli barcha ishlab chiqarish vositalarining erkaklar ihtiyoriga va mulkiga o'tishi ayollarning iqtisodiy qaramligiga olib keldi.

✓ Shundan so'ng ayol kishi tekinxo'r va erining qaromog'ida, deb qarala boshlandi.

Erkaklarning o'z mulkini bolalariga qoldirishga intilishi qarindoshlikni ona tomonidan hisobidan va meros qoldirishlaridan ota tomonidan hisobiga va meros qoldirishlariga o'tishga asos bo'ladi. Sinflarning yuzaga kelish davrida dunyodagi xalqlarning ko'pchiligida ro'y bergan jinslar ahvolidagi o'zgarishlarning va hamma joyda patrilokallikka o'tish bilan birga bo'lgan patriarxat o'rnatilishining asosiy negizlari shulardir.

Ayol kishi turmushga chiqar ekan, begona muhitga tushib qolgan, ayni vaqtda erning urug'lariga qo'shila olmagan va o'z urug'lari bilan aloqani ma'lum darajada yo'qotadi. Keyinchalik ayrim jamiyatlarda ayol kishi er urug'iga rasman kira boshlagan, lekin bunda uning tengsizligi an'anasi amal qilgan. U xalq yig'inlarida, sud majlislarida va madaniy yig'ilishlarda qatnashishdan chetga chiqib qolgan yoki ularda jimgina turib qatnashgan. Ayollarga belgilangan bir qator o'ziga xos patriarxat turmush ko'rsatmalari paydo bo'lgan, ya'ni erkaklarga yo'l berish, erkaklar to'plangan joylarga bormaslik, boshqa jamoat joylarida zarurat bo'lmasa ko'rinmaslik va h.k.

Jamoat joylarida zaruratsiz ko'rinmaslik ayollarning odamlardan uzoqlashib ketishiga olib keldi, bu esa keyinchalik musulmonlarning diniy huquqi shariat tomonidan tasdiqlandi. Patriarxat sinflar paydo bo'lishi davrida mutlaqo ustun, lekin har holda jinslarning o'zaro holatida universal tartib bo'lgan. Jamiyatlarning bir qismida erkaklarning hukmronligi va ayollarning to'la huquqqa ega emasligi dastlabki davlatlar paydo bo'lguniga qadar ham qaror topmagan, o'shanda ham ularda ayollarning nufuzli ahvolidan sezilarli jihatlar saqlanib qolgan. Bular, asosan, qo'l dehqonchiligini amalda qo'llagan davlatlar bo'lgan, bu esa mehnatning jinslar o'rtasida taqsimlanishining ahamiyatini va jinslar holatida yuz bergan o'zgarishlar uchun mulkchilik munosabatlariga ta'sirini ko'rsatgan.

Oilaviy turmushda erkaklar va ayollarning, kattalar va kichiklarning tengsizligi aks etgan patriarxal tartiblar o'rnatildi. Qiz bola o'zining katta yoshdagi qarindoshlariga so'zsiz bo'ysinishi kerak bo'lgan. Erga tekkan ayol oilaga: "kattasiga", "eng kattasiga", o'z eriga so'zsiz itoat etishi kerak bo'lgan. Ajralishda amalda erkaklarning bir tomonlama

Ayol kishi turmushga chiqar ekan, begona muhitga tushib qolgan, ayni vaqtda erning urug'lariga qo'shila olmagan va o'z urug'lari bilan aloqani ma'lum darajada yo'qotadi. Keyinchalik ayrim jamiyatlarda ayol kishi er urug'iga rasman kira boshlagan, lekin bunda uning tengsizligi an'anasi amal qilgan.

***Buyuk faylasuf
va olimlar
ham ayollar va
ularning ijtimoiy
mavqeyi haqida
ko'plab fikrlarni
bildirganlar.
Xususan,
Platonning
ayollarga
munosabati bir-
biriga zid bo'lgan
fikrlar bilan
ifoda etilgan. Bir
tomondan, ular
juda salbiy, chunki
u ayollarni tuban
mavjudot, deb bilar
edi. Erkaklarning
ayollarga bo'lgan
muhabbatini
erkakning
erkakka bo'lgan
hurmati, do'stligi
oldida hech narsa
emas, deb tushunar
edi.***

imtiyozi bo'lgan, agar ayol o'z ota-onasining uyiga qaytib ketishni istasa, uning qarindoshlari qalin pulini qaytarib berishlari kerak bo'lgan. Buning ustiga ayol kishiga boshqatdan erga tegishning hamma vaqt ham imkoni bo'lmagan. Levirat odati shunday tartibni ta'minlaganki, unga ko'ra, erining vafotidan keyin ham beva ayol uning oilasiga tegishli bo'lishni davom ettirgan. Ayol kishining mulkiy va merosga doir huquqlarining kamayishi shunga olib kelganki, ko'pgina xalqlarda uning mulki deb faqat uning sepi hisoblangan. Ayolning bolalarga bo'lgan huquqi ham cheklab qo'yilgan, ya'ni ajralish holatlarida bolalar otasi bilan qolgan yoki katta bo'lishgach otasining oldiga qaytishgan. Oilaviy turmushda alohida patriarxat odob ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, ayol erkakdan keyin taomni tanovul qilishi, eriga va uning katta yoshdagi qarindoshlariga va boshqalarga har xil e'tibor ko'rsatib turishi kerak bo'lgan. Ibtidoiy davrda ham ayollar masalami murakkab jarayon hisoblangan bo'lib, dastlab matriarxat davrida ayollar mavqeyi erkaklardan yuqori tursada, patriarxat davrga kelib ayollar mavqeyi erkaklardan keyingi ikkinchi o'ringa tushgan. Uning haq-huquqlari vaqt o'tib erkaklarnikiga nisbatan kamayib borgan¹.

Buyuk faylasuf va olimlar ham ayollar va ularning ijtimoiy mavqeyi haqida ko'plab fikrlarni bildirganlar. Xususan, Platonning ayollarga munosabati bir-biriga zid bo'lgan fikrlar bilan ifoda etilgan². Bir tomondan, ular juda salbiy, chunki u ayollarni tuban mavjudot, deb bilar edi. Erkaklarning ayollarga bo'lgan muhabbatini erkakning erkakka bo'lgan hurmati, do'stligi oldida hech narsa emas, deb tushunar edi. Platonning fikricha, erkak kishi hayoti davomida qat'iyatsiz, qo'rqq, nopok bo'lsa, o'limidan so'ng uning ruhi ayol kishiga aylanadi. Boshqa tomondan Platon ijobiy qarashlarni ham namoyon qiladi: u tasvirlagan mukammal davlatda ayol kishi erkak bilan bir qatorda barcha ishlarda ishtirok etishi mumkin. Platon ayollarni ro'zg'or yumishlaridan ozod etish lozimligini ta'kidlab, ularning aqliy faoliyatini erkaklarniki bilan teng deb baholaydi (ayollar faylasuf va jangchi ham bo'lishlari mumkin edi). Farzand tarbiyasini esa ikkala jins vakillariga teng bo'lgan mas'uliyatdir deb ta'kidlab o'tgan.

Turli zamonlarda ayolning ijtimoiy ahvoli, jamiyatdagi o'rni har xil bo'lgan. Tarixda har doim ham ayolga inson sifatida qaralmagan. Butun yer yuzida ayolga adolat bilan qaraydigan jamiyat yo'q edi. Qadimgi Hindistonda ayol turmu sh qurish, meros va boshqa hech qanday

¹ Усачёва Н. Женщина: её статус, судьба и образ в мировой культуре. — Алматы, Гылым, 1994. — С. 46

² Aflotun. Qonunlar. Yangi asr avlodi, 2002. — B. 35.

haqqa ega emasdi. U nopok tamoyilga, zaif fe'lga, yomon axloqqa ega, deb hisoblanar, shu sababli Manu III qonuni uni bolaligida otasiga, yoshligida eriga, erining vafotidan so'ng ham o'g'liga yoki erining aqrabosidan bir erkakka qaram bo'lmoqqa majbur etardi. Hatto, ba'zi joylarda eri o'lgach, ayolga yashash taqiqlanardi. Marhum eri bilan tiriklayin yoqib yuborishardi. Hindlarning muqaddas kitobi "Veda"da ayol momaqaldiraqdan, o'limdan, zahardan va ilondan ham yomonroq maxluq sifatida tasvirlanadi. Buddaviylik asoschisi Buddha avvallari ayolni dinga qabul qilmasdi.

Qadimgi Yunonistonda ayol xor va xaqir sanalardi. Qonun jihatidan bozorda sotiladigan va olinadigan mol turidan, narsadan uning farqi yo'q edi. Madaniy haqlarga oid turli erkinliklardan va hurriyatdan mahrum edi, butun umri davomida bir erkakning obro'si ostida bo'lib, turmush va turmush qurish ishlari o'sha erkakka topshirilar edi. O'sha erkak istagan biriga er sifatida taklif etar va ayolni zo'rlab tasarrufiga olardi. Erkak kishi barcha mol-mulkning idorachisi edi. Uning roziligisiz ayol hech bir tasarruf huquqiga ega emas edi. Ajralish ishlarida er mutloq haq hisoblanardi. Faqat ba'zi istisno hollardagina ayol ham ajralishni talab eta olardi. Faqat bu istak oldiga bir necha to'siqlar ham qo'yilardi. Bu to'siqlardan biri – ayol ajralishni talab qilib mahkamaga bormoqchi bo'lsa, erkak yo'lini to'sib, zo'ravonlik bilan uyga qaytarardi. Spartaliklar esa ayolga, masalan, merosda, kelin sepida va muomalada ba'zi huquqlar, madaniy haqlar bergandilar. Faqat bu ularning ayollarni hurmat qilganlari sababli emasdi. Sparta harbiy joy bo'lganligi uchun erkaklar davomli urush, jang bilan mashg'ul bo'lardilar. Sita (maxsus biror narsa bilan shug'ullanuvchi shahar, o'lka, davlat)da bo'lmaganlaridan, tasarruf etishni majburan ixtiyorsiz ayollarga qoldirishardi. Shu sababli spartalik ayol Afina va boshqa Yunon shaharlarida yashagan ayollarga qaraganda erkinroq edi³.

Yunon madaniyati cho'qqiga chiqqach, ayollar ahvoli yanada yomonlashdi. Fahsh yoyildi. Ayollar bir zavq vositasi va shahvatlarni qondiradigan ermak holiga tushdi. Turmushdan maqsad, faqat zavq va shahvat qondirish bo'lib qoldi. Farzand ko'rish maqsadi yo'qoldi. Spartada jinsiy jozibasi bo'lgan ayollar eridan boshqa erkaklar bilan g'ayri mashru' aloqalarga zo'rlanadigan bo'ldi. O'sha davrda hatto turli naqllar ham paydo bo'la boshladi: "Qul emas erkin, varvar emas ellinlik, ayol emas erkak bo'lib tug'ilganimga taqdirdan minnadorman". «Olamda tartib, yorug'lik va erkakni yaratgan ezgu ibtido hamda zulmat, kaos va ayolni yaratgan yovuz ibtido mavjud», deydi Pifagor. Yana

Qadimgi Yunonistonda ayol xor va xaqir sanalardi. Qonun jihatidan bozorda sotiladigan va olinadigan mol turidan, narsadan uning farqi yo'q edi. Madaniy haqlarga oid turli erkinliklardan va hurriyatdan mahrum edi, butun umri davomida bir erkakning obro'si ostida bo'lib, turmush va turmush qurish ishlari o'sha erkakka topshirilar edi.

³ Fotimaxon Sulaymonxon qori qizi. Ayol mukarramdir. – Movarounnahr, 2004. – B.7.

***Fransuz inqilobi
XVIII asr poyonida
qullikdan,
zulmatdan
qutulganini
e'lon qilar ekan,
bu shafqat
ayolga taalluqli
bo'lmagan.
Fransuz madaniy
qonuni mana shu
hujjatni qabul
qildi: "Sabi
(go'dak), telba
va ayol bundan
mustasnodir".
Fransuz
qonunchiligida
turmush qurgan
ayolga o'z qo'l
mehnati uchun
tasarruf huquqi
faqat 1907-
yil 13-iyulda
qabul etilgan
bir qonun bilan
mustahkamlangan.
Angliyada ayol
Injilga qo'l tekkiza
olmasdi.***

bir faylasuf Ksinafont esa "Ayolga ishonish o'g'riga ishonishday gap", deya ta'kidlaydi. Qadimgi davrdan boshlab insoniyatning deyarli barcha miqlari, ertaklari, qonunlari, dinlari, ta'limotlari erkaklar hukmron bo'lgan davrlarda yaratildi. Oqibatda ayollarning erkaklar hayotida tutgan o'rni ikki yoqlama ma'no kasb eta boshladi. U ayni paytda talon-taroj qilish, sotib olish mumkin bo'lgan o'lja, mol-mulk; ayni paytda esa naslni davom ettiruvchi turmush o'rtoq, ona. Diniy manbalarga ko'ra, Momo Havo ayni paytda Odam Ato uchun yaratilgan ayol, lekin aynan uning aybi bilan odam bolalari mashaqqatga mahkum. Qadimgi yunon miqlariga ko'ra, ma'budlar odamlardan qasd olish uchun ularga aynan ayol qiyofasidagi ofat – Pandorani yuboradilar⁴.

Fransuz inqilobi XVIII asr poyonida qullikdan, zulmatdan qutulganini e'lon qilar ekan, bu shafqat ayolga taalluqli bo'lmagan. Fransuz madaniy qonuni mana shu hujjatni qabul qildi: "Sabi (go'dak), telba va ayol bundan mustasnodir". Fransuz qonunchiligida turmush qurgan ayolga o'z qo'l mehnati uchun tasarruf huquqi faqat 1907-yil 13-iyulda qabul etilgan bir qonun bilan mustahkamlangan. Angliyada ayol Injilga qo'l tekkiza olmasdi. Bu vaziyat qirol Xenri VII (1509-1547) zamoniga qadar davom etdi. Uning zamoniga kelibgina, ayollar Injil o'qiy boshladilar. Bu vaqtgacha ingliz qonunida ayollar fuqaro sanalmasdi. Mulkiyat haqlari yo'q edi. Hatto peshona teri bilan topgan mollarini tasarruf qilish huquqiga ham ega emas edilar. 1789-yilda Buyuk Fransiya inqilobi ro'y berib, inson huquqlari bayonnomasi qaror qilinganda, Parij ayollari milliy majlisga bir ariza bilan murojaat etishdi. Bu arizada erkaklarga oid haq-huquqlarda ularni teng hisoblashishlarini so'rashgandi. Hech kutilmagan bu katta odim o'sha zamonning fikrlovchi odamlariga va olimlariga og'ir botdi. Ana shu kundan e'tiboran G'arbda erkak bilan ayol o'rtasida jiddiy bir kurash boshlangan va ayollar o'z da'volarini quvvatlamog va dalillamoq uchun qo'llaridan kelganicha, turli vositalardan foydalanishga harakat qiladilar. Bu mujodala bilxossa 1848-yildan so'ng asta-sekin ayollar foydasiga ilk natijalar bera boshladi. Jamiyat hayotida ayollar uchun sharaflarni ko'tarmoq imkoniyatlari ochilib, turmushga chiqish va ajrashish bilan aloqador qattiq, qo'pol qonunlar biroz yumshay boshlagandi. Natijada ayol tarix bo'yi mahrum etilgan ba'zi iqtisodiy va ijtimoiy haqlarga yetishdi. Ayolni maxluq sifatida ko'rgan eskicha fikrlash asta-sekin yo'qola boshladi. Afsuski, bu tadbirlarda hali xato qoida va asoslar juda ko'p edi. Ayol-erkak munosabatlarida ayolning fitratiga, ruhiy va jismoniy tuzilishlariga uyg'un kelmagan tomonlar ko'p

⁴ Fotimaxon Sulaymonxon qori qizi. Ayol mukarramdir. – Movarounnahr, – 2004. – B.9

edi. Zotan, barcha ijtimoiy masalalarda G'arb ko'pincha shunday yo'l tutadi. 587-yilda ayolda ruh bor yoki yo'qligi to'g'risida Fransiyada diniy kengash chaqirilgan bo'lsa, hozirda esa shu davlat ayolning ham inson sifatida, uning tabiiy va madaniy haqlarda erkak bilan teng ekanini ko'rib chiqarkan, ayolni ayollik mohiyatidan chiqaribroq, erkaklashtirib va undan ham oshirib, ilohiylashtirishga qarab ketgan. Fransuz inqilobidan boshlab, to hozirgacha davom etib kelgan ayol haqlari da'vosi davrimizda uchta ulkan natijaga erishgan:

- Ayol va erkak tengligi.
- Ayolning iqtisodiy mustaqilligi.
- Erkin hayot.

Bu natijalar ilk qarashda ayol haqlarida katta bosqichday ko'rinsa ham, aslida, vaziyat kutilganidek emas, hatto ba'zi joylarda vaqti-vaqti bilan zamonaviy ayol ahvoli ilk va o'rta asrlarning xo'rlangan, haq-huquqlari toptalgan ayoldan ham yomonroq hollarga tushganligi ayondir. A.Shopengauer (1788–1860) erkak va ayollardagi turli ruhiy jarayonlarning farqiga ahamiyat bergan. Erkaklar uchun mavhumlik, ayollar uchun aniqlik xos. Erkaklarga haqiqatning mavhum g'oyasi tushunarli bo'lsa, ayollar ma'lum bir insonga hamdardlik bildiradilar. U erkaklar reaksiyasi me'yor, ayollarniki esa me'yordan cheklanish degan hozirgi zamon fani nuqtai nazariga zid fikr bildiradi. Tarixga nazar solsak, ayrim asrlar davomida ayolning kamsitilib, unga past nazar bilan qaralganining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, o'rta asrlarda Yevropadagi ibodatxonalardan birida “Ayol odammi yoki yo'q” degan mavzuda bahs bo'lib, unda ko'pchilik ayolni “odam deb atash mumkin emas”, degan xulosaga kelgan. Germaniyada 1595-yilda “Ayolning odam emasligi haqida dissertatsiya” mavzuida hatto kitob ham chop etilgan. Shundan so'ng tadqiqotchilar ayollar o'zining tabiatiga ko'ra tovu, ilon, bo'ri, tulki yoki boshqa narsadir, lekin ular odam emas, deb yozishgan. XIX asrda nemis faylasufi A.Shopengauer ayolni g'oz, Nisshe esa mushuk timsoli deb e'lon qilganlar”⁵. Sharq ijtimoiy, siyosiy va axloqiy -madaniy ta'limotlarining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan Konfutsiy er va xotin alohida xonalarda yashashini, ayol erkakka to'la itoat etishi va jamiyat, davlat ishlariga aralashmasligini tartibga aylantirgan. Bunday g'ayriinsoniy, ayolning erk va huquqlarini, intellektual va madaniy qobiliyatlarini kamsituvchi urf-odatlar, qonunlar, munosabatlarni tarixdan istagancha keltirish mumkin⁶. Bu bilan qadimda

Erkaklar uchun mavhumlik, ayollar uchun aniqlik xos. Erkaklarga haqiqatning mavhum g'oyasi tushunarli bo'lsa, ayollar ma'lum bir insonga hamdardlik bildiradilar. U erkaklar reaksiyasi me'yor, ayollarniki esa me'yordan cheklanish degan hozirgi zamon fani nuqtai nazariga zid fikr bildiradi.

⁵ Энциклопедия афоризмов. – Минск, Совр. литература, 1999. – С.47.

⁶ Доктор Г.Плоссъ. Женщина в естествоведении и народоведении. Антропологическое исследование. Кн. 1.-Сыктывкар-Киров, ПЕРЯ-МАН-ГИПП “Ветка”, 1995.-С.56.

va o'rta asrlarda ayollarning tutgan mavqeyini jamiyatning ularga nisbatan munosabatlarini ko'rish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ayollar huquqlarini maxsus himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy huquqiy asos hamda mexanizmlar, bugungi kunda ayollar huquqlari tushunchasi vujudga kelganligini hamda bu tushuncha asosida inson huquqlarining alohida sohasi shakllanganini ko'rsatadi. Shuningdek, ayollar huquqlari nafaqat inson huquqlarining alohida turi sifatida ajralib chiqmoqda, balki, shu bilan birga, inson huquqlarining ajralmas huquqlari sifatida bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilishga, bu ayollar muammolarini muhokama qilish va ularni hal etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 7.
2. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni*.
3. Yaxyoyeva L. *Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi*. – Toshkent, 1995.
4. Mustafoyev B. *Konstitutsiyaviy huquq: Ensiklopedik lug'at*. – Toshkent, 2006.
5. Ubaydullayeva R.A. *Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2006.
6. G'aniyeva M., Latipova N. *Ijtimoiy ish asoslari: o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2012
7. <http://www.lawlib.uz>.
8. www.ziynet.uz
9. <http://lex.uz>
10. <http://www.prof.msu.ru>